

BOLALAR ADABIYOTI

Aleksandr Pushkin

TANLANGAN ASARLAR

**Motsart va Saleri
Tosh mehmon
Boqchasaroy fontani**

Rus tilidan G'afur G'ulom, Hamid G'ulom
va Usmon Nosir tarjimasida

BAKTRIA PRESS
Toshkent-2013

УДК 84 (2Ros Rus) -
КБК P96
821.161.1.-053.5

Rus tilidan Gʻafur Gʻulom, Hamid Gʻulom va Usmon Nosir tarjimasida

P96 **Pushkin, Aleksandr**

Tanlangan asarlar: Mozart va Saleri. Tosh mehmon. Boqchasaroy fontani/A. Pushkin; tarj.: Gʻ. Gʻulom, H. Gʻulom, U. Nosir. — Toshkent: Baktria press, 2012. — 60 b. — (Bolalar adabiyoti).

Jahondagi ulugʻ shoirlardan biri A. S. Pushkin (1799–1837) haqli ravishda «rus sheʼriyatining quyoshi» deb ataladi. Uning nurga, ziyoga, hur fikrlarga, ezgu toʻygʻularga toʻla sheʼrlari, dostonlari, nasriy asarlari va dramalari har doim sevib, eʼzozlanib oʻqiladi. Bolalar A. S. Pushkinning «Shoh Sulton haqida ertak», «Baliqchi va oltin baliq haqida ertak», «Oʻlik malika» hamda boshqa sheʼriy ertaklarini hayajon bilan oʻqiydilar. «Ruslan va Lyudmila», «Kavkaz asiri», «Boqchasaroy fontani» kabi dostonlari balogʻat yoshidagi yigitlarning qoʻlidan tushmaydi. Undan keyin «Yevgeniy Onegin», «Kapitan qizi», «Boris Godunov»ga navbat keladi.

Ulugʻ shoir asarlaridan saralash tuzilgan va xalqimizning otashin shoirlari Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Usmon Nosir ehtiros bilan oʻzbek tiliga tarjima qilgan ajoyib asarlari siz, aziz kitobxonlar uchun munosib tuhfa boʻlishiga ishonamiz.

УДК 84 (2Ros-Rus)
КБК P96

MOTSART VA SALERI

I-SAHNA

Saleri'

Deydilarki: haq — insof yo'q jahonda
Ammo insof falaklarda ham yo'qdir...
Oddiy kuyday bu men uchun ko'p ravshan.
Men san'atga maftun bo'lib tug'ildim,
Go'daklikda qadimiy bir cherkovdan
Eshitarkan arg'anunning¹ sadosin
To'ymas edim u fusunkor ohangga,
Ixtiyorsiz to'kilardi ko'z yoshim.
Ermaklardan o'zim barvaqt voz kechdim:
Musiqadan o'zga fanga — bilimga
Yo'q-di aslo yuragimda havas — zavq:
Mag'rurona hazar aylab ulardan
Faqat, faqat musiqaga berildim.
Zahmat ekan, og'ir ekan ilk qadam,
Dastlabki yo'l bezdiradi yo'lchini.
Ammo yengdim mashaqqatni, zahmatni:
San'atinga hunar bo'ldi dastoyor.
Puxta bo'ldim bir hunarmand singari,
Rom ayladim barmog'imni ishimga.
Qo'llarimga quruq hunar bo'ldi esh,
Qulog'imga ta'lim berdim rostlikni.
Kuyni bo'g'ib musiqaning jussasin
Jarroh kabi yorib: qo'ydim balamom.
Ohanglarning nisbatini, hisobin
Aljabr-la sanab, o'lchab ongladim,
Axir bo'ldim bu sohada alloma'
Dil qumsadi endi ijod fayzini:
Shon-u shuhrat dabdabasin o'ylamay
Yashirincha men kirishdim ijodga.
Ikki-uch kun uxlamasdan, yemasdan
Tinch hujramda mehnat qildim, cholishtim,
Goh ilbomdan lazzat topdim, goh jafol!

Ammo keyin menga yoqmay ijodim
Yozganimni o'tga tashlab kuydirdim.
Kuyayotgan tushunchamni, unlarni
Qilar edim sovuq-sovuq tamosho...
Nima deyman? — Buyuk Glyuk⁴ o'zining
Yangi (hamda u sehrlik) sirlarin
San'ati-la ayon qilgach olamga
Men o'zimning ixlos qo'yib sevganim
Ohanglarning hammasidan aynidim.
Yo'l adashgan yo'lovchiday sarsari,
Indamayin qadamladim ketidan.
Oqibatda himmatim-la men yetdim
San'atimning sharofatli avjiga.
Endi meni kutar edi shuhrat-shon.
Men yaratgan musiqali ariyalar
Aksi-sado topgan edi qalblarda.
Mamnun edim yutug'imdan, sha'nimdan,
Mamnun edim san'atdosblar — do'stlarning
Ijodida yutuqlardan, zafardan.
Men yot edim rashk hissiga, hasadga.
Qizg'onishni bilmas edim umrimda,
Bali, Parij olamini, Pichchini⁵
O'z sehrkor unlari-la qoplarkan
Men hech qachon unga hasad qilmadim.
Bir mahalda Ifigeniy⁶ unlarin
Eshitganda yana hasad qilmadim.
Kim aytarki, mana mag'rur Salert
Razilona bir hasadkor bo'ldi deb?
Kim so'ylarki, ojiz ilon singari
U qumlarni va changlarni kemirdi?
Buni hech kim so'ylayolmas. Hozir-chi:
O'zim aytay, hasad ichra kuyaman.
Hasadkorman iztirobli va mudhish.
Ey xudovand! Senda bormi hech insof?
Nega axir u muqaddas iste'dod,
O'lmas daho⁷ berilmabdi shu kunda
G'ayrat ila, mehnat ila, jahd ila —
Sevgi ichra duo qilgan kimsaga?
Nega ulug' daho birla iste'dod

Bir bekorchi va devona maxluqning
Kallasiga nur sohibdi?.. oh Motsart⁶

Motsart kirib keladi.

Motsart Hay, hay! Meni ko'rib qolding, bo'lmasa —
Hazillashmoq istar edim sen bilan.

Saleri Aziz do'stim! Sen bundami? Bilmabman,
Ko'p bo'ldimi kelganingga?

Motsart Yo'q, hozir!

Yangi asar ko'rsatinoqlik qasdida
Sekingina kelar ekan shu tobda —
Qovoqxona eshigida nogohon —
Bir g'ijjakning chalinganin eshitdim.
Sen unringda, aziz do'stim Saleri,
Eshitmabsan shunday qiziq narsani!
Qarasam bir ko'r va keksa g'ijjakchi
«O'zingiz-ku bilardingiz!» kuyini
Chalayotir. Hayron bo'ldim. Yo pirim!
Chidayolmay olib keldim hu yerga.
Sen ham uning san'atidan bahra ol!
Ichkari kir!

Ko'r va keksa g'ijjakchi kirib keladi.

Motsartdan bir narsa chal!

Chol Don-Juandan bir uriya chaladi.
Motsart qahqahlab kuladi.

Saleri Shu ahvolga kulasan-a, taajjub?

Motsart Oh, Saleri, nega sen ham kulmaysan?

Saleri Yo'q, agarda bir yaramas bo'yoqchi
Rafael¹⁰ning Madonna sin bulg'asa,
Yoki razil bir qiziqchi aylasa —

Aligeri¹¹ o'yinini masxara —
Men kulmayman, yo'qol bundan tentak chol!

Motsart Hay, shoshilma! Mana olgin shu pulni
Sog'lig'imga boplab-boplah sharob ich!

Chol ketadi.

Sening bukun kayfing yo'qroq, Saleri.
Boshqa mahal bir kelaman oldingga.

Saleri Nima edi menga olib kelganing?

Motsart Arzimagan bir narsaydi. Kechasi —
Ko'p qiynadi uyqusizlik illati.
Ikki-uchta fikr keldi xayolga.
Ana bukun yozib qo'ydim ularni.
Eshitmoqchi bo'lgan edim ra'yingni:
Ammo endi eshitging ham yo'q, deyman.

Saleri Motsart, Motsart, bu ham gapmi, o'ylagin!
Menmi seni eshitmayin? Insofsiz!
Qani o'tir, chalib bergin, tinglayin!

Motsart *Fortepianoning oldiga o'tiradi.*

Masalan, sen tasavvur qil bir zotni...
Kimni desak? Mayli meni, farazan...
Meni, lekin umrim biroz yosh bo'lsa,
Qattiq emas, yengilgina oshifta —
Bo'lib qolsam bir dilbarning ishqida.
Hamroh bo'lsa menga o'sha jonona,
Yoki bir do'st - faraz qilsak sen o'zing, —
Xursand bo'lsam... Nogoh ko'zim oldida
Jilvalansa bir tobutning haykali,
Birdan zulmat yoki dahshat qoplasa...
Bu yog'ini endi eshit kuylardan!

Chaladi.

- Saleri** Shu bilan sen kelar ekan oldimga,
Bitta so'qir g'ijjakchini tinglay deb
Qovoqxona eshigida to'xtabsan!
Parvardigor! Bu qanday gap, oh Motsart!
Sen o'zinga o'zing emas sazovor!
- Motsart** Xo'sh, so'yla-chi, yoqadimi senga kuy?
- Saleri** Oh, naqadar chuqurlik bor shu kuyda,
Qancha jur'at va qanchalik ixchamlik!
Sen tangrisan, ammo o'zing bilmaysan,
Buni faqat men ongladim, men bildim!
- Motsart** Ho, shunday de! Bu rostmikin? Ehtimol...
Ammo sening o'sha tangri deganing —
Qorni g'oyat ochiqqandir oshnam.
- Saleri** Senga taklif: birga qilsak ovqatni
«Oltin arslon» degan qovoqxonada
- Motsart** Qarshilik yo'q. Taklifingga roziman.
Ammo uyga borishimga ruxsat ber,
Xotinimni ogoh qilib aytayki,
Kutmasinlar meni uyda ovqatga.

Ketadi.

- Saleri** *(Yolg'iz)*
Ha, men semi kutayapman; bilib qo'y.
Yo'q, endi men bequvvatman, ojizman
Nasibamga qarshi turmoq bobida.
Qismatimdur bu odamni to'xtatmoq —
Yo'qsa, faqat men, shu so'lg'un, futursiz
Shuhratim-la emas, balki jamul-jam
Musiqaga sajda qilgan rohiblar
Musiqaning xodimlari jumlasini
Tamomila mahv-u barbod bo'lg'aymiz...
Nafi nima agar Motsart yashasa
Va yuksalsa cho'qqilarni egallab?

Ko'tararmi san'atni u? Yo'q, aslo!
U yo'q bo'lgach san'at yana pasayar:
Bizga biron voris-ku u qoldirmas.
Uning bizga axir nima foydasi?
Misoli bir farishtakim, keltirmish
Bizga necha jannatoso qo'shiqlar,
Toki bizday bandalarda qanotsiz
Istaklarni bun'yod qilib qaytadan —
Uchib ketgay u azaliy maskanga!
Modomiki shundoq ekan, tezroq ket!
Izoramning¹² so'ng sovg'asi bu zahar,
O'n sakkiz yil uni tutdim yonimda.
O'sha chog'dan hayot menga ko'p mahal
Jongudoz bir yara kabi tuyildi,
Ko'p fursatda bir dasturxon boshida
O'z beparvo dushmanim-la o'tirdim,
Garchi o'zim sira qo'rtoq emasman,
Garchi ta'bim ko'p xafaqon va injiq,
Garchi menga aziz emas tiriklik —
Ammo dilda vasvasani — ig'voni
Haydab turdim, ishga solmay og'uni,
Sudrab-sudrab keldim hukmi-qat'ini.
O'lim shavqi berar edi iztirob,
Ammo nega o'lay, derdim, ehtimol —
Hayot berar kutilmagan armug'on,
Balki meni quvonch qilar ziyorat,
Kelar ijod kechasida ilhomlar:
Balki paydo bo'lur yangi bir Gayden¹³
Va yaratar shunday ulug' hadia,
Butun umrim undan bo'lur zavqiyob...
Qancha manfur bo'lsa yovim hazmaro,
O'ylar edim, yo'q bu hal unchamas,
Balki bundan battarrog'i chiqqusi,
Balki yana takabburroq bir janob
Meni qilur shiddat ila haqorat —
Shunda yarar Izoraning sovg'asi.
Ha, endi men haqli chiqdim! Nihoyat
Topa oldim eng ashaddiy dushmani,
Yangi Gayden saxovatli qo'lidan —

Menga tutdi sevinchlarning mayini!
Payti keldi! O't do'stlikning jomiga —
Ey sevgimning yodgori, sen bukun.

II-SAHNA

*Qovoqxona. Alohida xona.
Fortepianino Motsart va Saleri
stol orqasida o'tiribdirlar*

- Saleri** Nega bugun parishonsan?
- Motsart** Menmi? Yo'q!
- Saleri** Sen aftidan, bir narsadan xafasan?
Taom — a'lo, qadahlarda mayi-nob,
E, sen bo'lsang lom-mim demay xo'mrayasan.
- Motsart** Senga gapning ochig'ini aytaymi:
Rekviyem¹⁴ dan xiyla tashvish tortaman.
- Saleri** A-ha, do'stim! Shunday degin! Bilmabman.
Sen Rekviyem yozibsan! Ko'pdanmi?
- Motsart** Ancha bo'ldi, uch haftacha. Qiziq hol...
Senga sbuni so'zlab edim shekilli!?
- Saleri** Yo'q!
- Motsart** Tinglagin, unday bo'lsa qissamni:
Bundan balki uch haftacha ilgari
Men uyimga kechroq qaytdim. Dedilar:
Tanilmagan birov meni so'rabdi.
Men tun bo'yi uxlamasdan o'yladim:
Bu kim ekan? Nima ishi bor menda?
Ertasiga yana o'sha sirli zot
Uyga kelib meni topmay ketganmish.

Uchinchi kun o'g'lim bilan xonada
O'ynab tursam chaqirishdi: men chiqdim.
Qora libos kiygan kishi odob-la
Ta'zim qilib: «Bir rekviyem yozingiz!» --
Buyurdiy-u darhol ko'zdan yo'qoldi.
Men shu onda uni yoza boshladim.
Ammo mening qora kiygan odamim
Hech kelmadi buyurganin olgam.
Lekin bunga o'zim rozi: negaki —
Menga mushkul asarimdan ajralmoq,
Garchi, zotan tap-tayyordur rekviyem,
Meni lekin shu o'rtada...

Saleri

Nima gap?

Motsart

Buni iqror qilish uyat...

Saleri

Nimani?

Morsart

Kecha-kunduz menga orom bermaydi
O'sha qora kiygan sirli odamim.
Soya yanglig' meni quvar har yoqda.
Shu damda ham nazarimda biz bilan
O'tiribdi uchinchi shaxs — u o'zi.

Saleri

Shu bolalik vahimangni qo'y endi!
Bo'ldi. Yo'qot shu bekorchi tashvishni!
Menga doim so'ylar edi Bomarshe¹⁵:
«Menga qara, birodarim Saleri,
Kelaqolsa xayolingga vasvasa.
Shampanskiy shishasini ochaver.
Yoki o'qi «Figaroning to'yi»ni.¹⁶

Motsart

Ha, aytganday oshnang edi Bomarshe,
Uning uchun sen Tararni yozgansan,
Ko'p soz narsa. U asarda bir kuy bor...
Zikr aylayman uni baxtli chog'imda...
La-la-la... Bu rostmikin Saleri,
Ki birovni zaharlahdur Bomarshe?

Ham g'ussa bor, ham quvonch bor dilimda,
Go'yo og'ir burchni o'tab qutildim,
Go'yo mening vujudimdan nogiron
Bir parchani kesdi pichoq, shifobaxsh —
Do'stim Motsart, bu ko'rganing ko'zyoshlar...
Sen ularni ko'rmay qo'ygin... Shoshil, chal,
Toki ko'nglim tovushlarga zich to'lsin...

Motsart

Koshki hamma, sening qadar ey do'stim
Musiqaning qudratini his etsa!
Yo'q: u holda dunyo qulab ketardi;
Maftun bo'lsa hamma erkin san'atga
Kim ko'rardi tirikchilik g'amini!
Bizga o'xshab past foydani xorlagan,
Husni-oliy dargohida rohiblar,
Sara, baxtli san'atkorlar juda kam.
To'g'rimi, ha? Ammo bukun mazam yo'q,
G'oyat og'ir sezayabman o'zimni:
Borib uyda uxlagum bor. Alvido!

Saleri

Xayr senga!

O'zi yolg'iz.

Ha, endi sen uxlaysen,
Hamda uyqing uzoq bo'lar ey Motsart!
Ammo ajab! Nahot uning gapi rost,
Nahotki, men dohiylardan emasman?
Dohiylikka badkirdorlik sig'maydi,
Yo'q, bu yolg'on: Bonarotti¹⁷ fe'li-chi?
Balki bu ham ko'p bema'ni, fahmi past
Olmondan chiqib qolgan afsona?
Ehtimolki, sira qotil bo'lmagan
Vatikanga¹⁸ bino qo'ygan u dohi?

IZOHLAR

1. *Saleri Antonio* (1750–1825) italiyalı bastakor bo'lib, Venada saroy orkestrida dirijer bo'lib ishlagan. U Motsartga qarshi ko'p ig'vo va fitnalar qo'zg'agan. Shu asosda, ba'zi bir mulohazalar va shu jumladan, go'yo Saleri, buyuk kompozitor Motsartni zaharlab o'ldirgan degan rivoyatlar tug'ilgan. Pushkin, shu rivoyatni o'z kichik dramasiga asos qilib olgan.

2. *Arganun* organ, ma'lum musiqa ashobi.

3. *Alloma* bir fan yoki hunarda zo'r ustoz.

4. *Glyuk* — (1714–1787) mashhur nemis bastakori.

5. *Pichchini* — XVIII asrning tanilgan italyan artisti.

6. *Ifigeniy* — XVIII asrda mashhur musiqachi.

7. *Daho* — dohiylik, geniy.

8. *Motsart Volfgang* - (1756–1791) — buyuk nemis bastakori. Butun umri ehtiyoj ichida o'tgan bu kishi Venada o'lib, kambag'allarning umum qabristonida ko'milgan. U qisqa umrida 15 opera, 40 simfoniya, 30 serenada, bir talay ariya, qo'shiq va alohida janrlarda musiqa asarlari yaratgan. Uning ijodi jo'shqinlik va hayotsevarlik bilan tavsiflanadi.

9. *Rafael* (1483–1520) — italiyalı buyuk rassom.

10. *Madonna* — Iso payg'ambarning onasi Maryam, Rafaelning mashhur bir rasmi uni tasvirlaydi.

11. *Aligeri Dante* (1265–1321) italyan adabiyotining otasi hisoblangan huyuk shoir («llohiy komediya»ning muallifi).

12. *Izora* — Saleri yoshlikda yaxshi ko'rgan bir xotinning ismi.

13. *Gayden* — (1732–1799) avstriyalı mashhur bastakor.

14. *Rekviyem* — katolik mazhabidagi ibodatxonalarda o'lganlarni yodlab kuylangan duoning musiqasi.

15. *Bomarshi* (1732–1799) ma'lum fransuz dramaturgi.

16. «Figaroning to'yi» — Bomarshe o'zi yozgan mashhur komediyaning nomi.

17. *Mikel-Anjelo Bronarotti* (1475–1564) Italiyaning dohiy rassomi, haykaltaroshi va me'mori. Bu kishi haqida to'qilgan ko'p afsonalardan birida go'yo u birovni o'ldirgan emish, degan rivoyatni eslash bilan Saleri, dohiy kishi ham odam o'ldirgan bo'lishi mumkin deb, o'ziga tasalli bermoqchi bo'ladi.

18. Rumo shabrida xristian-katolik papalarining istiqomatgohi bo'lmish alohida katta bir qo'rg'on. Bu qo'rg'ondagi eng chiroyli imoratlar va hadiy shakllar Mikel-Anjeloning rejasi bilan solingan va ishlangan.

TOSH MEHMON

Leporello. O statua gentilissima
Del gran Comandatore!..
...Ah Padronel

Don Giovanni¹

I-SAHNA

Don Guan va Leporello

Don Guan Biz shu yerda kutajakmiz tunni. Nihoyat,
Shu Madridning qopqasiga yetdik. Ha demay,
Mo'ylovimni plash bilan, Qoshni bo'rkila
Yopib, tanish ko'chalardan yelday uchaman.
Nima deysan? Meni birov tanirmikan-a?

Leporello Ha! Mumkinmi Don Guanni tanimoq zinhor!
Axir, unday kishilarning son-sanog'i yo'q!

Don Guan Nechun hazil? Kim taniydi?

Leporello Birinchi posbon,
Biror lo'li, yo uchragan sarmast sozanda,
Yoki eski bir jo'rangiz, plashni kiyib
Qilichini qo'ltig'iga qisgan behayo.

Don Guan Taniybersin. Bokisi yo'q. Qirolning o'zi —
Duch kelmasa basdir menga. Rostin aytsam, men
Madridda hech bir kimsadan qo'rqmayman aslo.

Leporello Don Guanning ijozatsiz, surgundan qaytib,
Madridga kirganligi erta kundayoq
Qirolgacha borib yetar — xo'sh, ayting-chi, u
Sizni nima qilar?

1 Leporello: O, buyuk komandorning sevimli haykali!.. Oh, afandim! «Don-Juan».

Don Guan

Yana jo'natar takror.

Axir, ular kesmaslar-ku mening boshimni,
Men xiyonat qilganim yo'q axir davlatga.
Qirol meni sevib turib badarg'a qildi;
O'ldirilgan u kishining ahli-xonasi —
Jontimga qasd qilmasin deb...

Leporello

Buni qarang-a!

Siz bu yerda tinch yursangiz ma'qulroq edi.

Don Guan

Kechirasiz kaminani! Men u yerlarda
Yolg'izlikda o'lay dedim. Qanday odamlar,
U qanday yer! Osmoni-chi?.. Xuddi tutunzor.
Xotinlar-chi? Ey sen tentak Leporellom, bil;
Andalusning eng oddiy bir dehqon xotinin
O'sha yerning dilbariga alishmayman men.
Ular avval ko'm-ko'k ko'zi, oppoq badani,
Kamtarligi, hammadan ham yangiligi-la
Menga yoqdi — ko'zlarimni quvontiroldi;
Ming shukrki, tezda fahmim yetdi bariga —
Ular bilan yaqin bo'lmoq gunoh deb bildim —
Ularda jon asari yo'q — mo'm qo'g'irchoqlar!
Oh, bizlarning xotinlar-chi!.. Ammo, qara-ya,
Bu yer bizga tanish; sen ham taniyoldingmi?

Leporello

Taniganda qandog': bu yer xuddi Antoniy —
Monastiri. Siz bu yerga ko'p kelardingiz,
Bu chorbog'da otingizni ushlab turardim.
Rost so'zlasam, bu — la'nati vazifadir. Siz
Vaqtigingizni mendan ko'ra xush o'tkazgansiz —
Ha, ishoning.

Don Guan

(o'ychan)

Oh bechora go'zal Ineza!

Endi u yo'q! Uni qanday yaxshi ko'rardim!

Leporello

Ineza! Ha, u qora ko'z... Hamon esimda.
Uch oy unga siz xushomad qilib yurdingiz,
Ammo iblis sizga axir madadga keldi.

Don Guan Iyul oyi... Tunda. Uning ma'yus nigohi,
Jonsiz-jonsiz lablaridan g'alati bir zavq,
Ajib rohat olgan edim. Bu ko'p taajjub.
Uni go'zal emas degan eding shekilli.
Ha, chindan ham, unda asl chiroy kam edi,
Faqat ko'zlar, uning yonib turgan ko'zlari...
Va hoqishi... Men u kabi nafis boqishni
Uchratolgan emasman hech... Ovozi esa
Xuddi bemor tovushiday sokin va ojiz.
Uning eri tosh yurakli muttahaam edi,
Buni keyin bilib qoldim... Essiz Ineza!..

Leporello Bokisi yo'q, yangilari topildi.

Don Guan Bu haq!

Leporello Omon bo'lsak, yana ko'pi topilgusidir.

Don Guan Bu ham to'g'ri.

Leporello Borgandan so'ng, Madridda endi
Qaysi birin axtaramiz?


Don Guan O, Laurani!
Men o'shaning huzuriga yuguraman.

Leporello Soz!

Don Guan Eshigingni qoqajakman — agar uyida
Birov bo'lsa, derazadan qochsin — so'rayman

Leporello Bu turgan gap. Xursandchilik chakki bo'lmadi.
Marhumalar bizni uzoq bezovta qilmas.
Birov kelar, kim bo'lsa u?

Rohib kiradi.



- Rohib** Hozir shu yerga
U keladi. Kim bu? Bular Dona Annaning
Odamlari emasmikan?
- Leporello** Yo'q, yo'q, — bizlar ham —
O'zimizga o'zimiz bek. Ziyorat qilib
Yurmoqdamiz.
- Don Guan** Xo'sh siz kimni kutib turipsiz?
- Rohib** Dona Anna marhum eri maqbarasiga
Hozir yetib kelajakdir.
- Don Guan** O, Dona Anna
De-Solva! U, o'ldirilgan marhum komandor
Rafiqasi... Eslolmayman kim o'ldirgamin?
- Rohib** Fahsh, vijdotsiz, xudosini sotgan Don Guan.
- Leporello** Oho! Buni qarang-a! Don Guan qissasi
Hatto sokin monastirga kiribdi. Endi
Uzlatdagi zohidlar ham kuylar madhini.
- Rohib** Balki sizga tanishdir u?
- Leporello** Bizgami? Aslo
Hozir qayda bo'lsa ekan u?
- Rohib** Bu yerda yo'q,
Uzoqlarda, badarg'ada.
- Leporello** Xudoga shukur.
Qancha olis bo'lsa, shuncha yaxshi. Barcha shu —
Buzuqlarni bitta qopga solib, hirakay
Xud dengizga tashlash kerak.
- Don Guan** Bu qanaqa lof?
- Leporello** Sukut saqlang; men atayin shunday so'zladim.

- Don Guan** Shu turbaga ko'milgandi, demak, komandor?
- Rohib** Ha, shu yerga. Yori unga haykal tikladi,
Arvohini quvontirmoq uchun har kun u
Qabristonga kelib duo o'qiydi hamda
Ko'zlaridan yosh to'kadi.
- Don Guan** Husni qalay? G'alati beva?
- Rohib** Xotinlarning go'zalligiga
Bizlar — tarki-dunyo ahli, maftun bo'lmaymiz.
Ammo yolg'on gapirmaklik gunohdir; hatto
Taqvodor ham uning husnin inkor etolmas.
- Don Guan** Rahmatlikning rashk qilishi bejiz emas-kan.
U xilvatda tutar edi Dona Annani,
Hech birimiz uni ko'ra olmagan edik.
Men u bilan so'zlashmakka ko'p ishqibozman.
- Rohib** Dona Anna erkak kishi bilan so'zlashmas,
Bu haqiqat.
- Don Guan** So'zlasharmi siz bilan, ota?
- Rohib** Men rohibman — mening bilan so'zlashar albat.
Ana o'zi.
- Dona Anna kiradi.*
- Dona Anna** Qani, otam, eshikni oching.
- Rohib** Hozir, xonim: kutib turgan edim men sizni.
- Dona Anna Rohibning orqasidan boradi.*
- Leporello** Xo'sh, qanaqa?

Don Guan Bevalikning qora chodراسى —
Uni tamom qoplab olib ko'rsatmas bizga,
Faqat nozik tovonini ko'rib qoldim men.

Leporello Sizga shu bas. Qolganini tasavvuringiz
Bir nafasda bekami-ko'st chizib beradi;
Xayolingiz naqqoshdan ham mohir va chaqqon,
Xoh qoshidan boshlang, xohi oyoqlaridan,
Sizning uchun bab-baravar...

Don Guan Ey, Leporello
Men u bilan tanishaman.

Leporello Endi shuni yetmas edi! — Qatl etib erin,
Bevaning ko'zyoshlarini sayr etmoqchisiz
Shuncha surbet!

Don Guan Oqshom ortiq yaqinlashmoqda.
Tepamizda oy namoyon bo'lmasdan burun,
Nuri bilan zulumotni quvmasdan burun,
Biz Madridga kirmog'imiz darkor.

Ketadi.

Leporello Yo rabbim!
Ispaniya begzodasi, xuddi o'g'riday
Tunni kutar va oydindan cho'chir, hayiqar.
Eh, la'nati tirikchilik! Axir tobakay
Men u bilan sarson bo'lg'um? Bezdim, zerikdim.

II-SAHNA

Xona. Laura ziyofat beradi.

Birinchi mehmon

Ont ichaman, ey Laura, o'zing bech qachon
O'ynamagan eding buncha kamolot ilo.
O'z rolingni tushunibsan, g'oyat haqqoniy!

Ikkinchi mehmon

San'atingni nozik yechding! Zabardast, jo'shqin!

Uchinchi mehmon

San'atingga qoyil!

Laura

Ha, men bugun har zarbning,
Har bir so'zning ma'nosini chertdim o'rnida,
Qalbm hilan maftun bo'ldim ilhomga erkin.
So'zlar o'jiz xotiraning mevasi emas,
Balki ko'ngil chashmasidan quyildi ravon.

Birinchi mehmon

Bu gaping haq. U ko'zlaring hamon chaqnaydi.
Yonoqlaring hamon yonar, erka shodliging
Vujudingni qoplamishdir. Laura, kuyla,
Sevinchingning so'nishiga yo'l qo'yma aslo,
Bircer narsa kuyla yana.

Laura

Sozni beringlar.

Gitarani olib, kuylaydi.

Hamma

Barakalla! Barakalla! Mislisiz go'zal!

Birinchi mehmon

Rahmat senga, sehrigar qiz. Sen ko'nglimizni
Maftun qilding. Hayot zavq-u-safolaridan
Faqat sevgi qarshisida musiqa banda;
Ammo ishqning o'zi kuydir... Ana, nazar sol,
Ta'sirlandi hatto Karlos — mag'rur mehmoning.

Ikkinchi mehmon

Bu ne ovoz! Jonning o'zi singmishdir unga!
Kimning so'zi Laura bu?

Laura

Don Guanniki.

Don Karlos

Kimning deding? Don Guanning so'zi dedingmi?

Laura

Bu so'zlarni bir vaqtlar u sodiq do'stim,
U havoij ishqibozim to'qigan edi.

Don Karlos

Xudosini sotgan, ablah u Don Guaning,
Sen bo'lsang, sen ahmoqsan.

Laura Sen jinni bo'ldingmi?
Garchi ispan bekzodasi bo'lsang hamki sen,
Farmon bersam, navkarlarim hoshingni olar

Don Karlos (o'rnidan turadi)
Chaqir o'sha navkarlarni,

Birinchi mehmon Laura, bas qil;
Don Karlos, sen xafa bo'lma Esini yepti...

Laura Nechun? Guan, akasini qilichbozlikda
Halol turib o'ldirgani uchunmi? Afsus,
O'ldirmapti buning o'zin,

Don Karlos Jahlim qo'zgadi,
Men tentakman.

Laura Aha! Iqrar bo'lding o'zing, bas,
Ana endi yarashamiz.

Don Karlos Kechir, Laura.
Gunohkorman. Ammo o'zing yaxshi hilasan,
Uning nomin aslo loqayd eshitolmayman...

Laura Uning nomi har lahzada tilimga kelar,
O'zing aytgil, shuning uchun gunohkormanmi?

Mehmon Sen jahlingdan tushganliging nishonasiga,
Kuylab bergil, Laura.

Laura Ha, xayrlashamiz,
'Tun ham bo'ldi. Endi nima kuylasam ekan?
Ha, tinglanglar.

Kuylaydi.

Hamma Juda ham soz, mislsiz go'zall!

Laura Xayr, endi, afandilar.

Mehmonlar ketadi. Laura Don Karlosni to'xtatib qoladi.

Laura Ey sen shaddod, mehmonim bo'l bu kecha mening,
Menga chindan yoqib qolding; haqorat qilib,
Tishlaringni tishlaringga bosar ekansan,
Don Guanga o'xshab ketding.

Don Karlos O, baxtli yigit!
Sen sevgansan.

Laura boshini qimirlatib, sevganligini izhor qiladi.

Juda hammi?

Laura Ha, juda sevdim.

Don Karlos Sen hozir ham sevasanmi?

Laura Shu lahzadami?
Yo'q, sevmayman. Ikki yorni seva olmayman.
Endi seni sevib qoldim.

Don Karlos Aytgil, Laura,
Necha yoshga kirding hozir?

Laura O'n sakkiz yoshga.

Don Karlos Sen niholsan... Yana besh, yo'lti yilgacha
Nihol kabi yashnaysan sen. Tevaragingdan
Yana olti yil arimas ishqihozlaring,
Ular seni erkalaydi, tuhfalalar berib,
Kechalari kuylab, orom bag'ishlaydilar,
Seni deya, katta yo'lning chorrahasida
To'qnashishib, bir-hirlarin o'ldiradilar.
Ammo fasling o'tajakdir, ko'zlaring so'nar.
Qovog'laring ajinlarga to'lib, qorayar,
Tunday qora sochlaringga oq oralaydi,

Hamma seni kampir deydi; o'shanda, aytgil,
Sen o'shanda nima deysan?

Laura

Nima der edim?

Nechun bunday xayolotlar? Gapingni qara!
Kel — ayvonni ochib qo'y. Ko'k shu qadar sokin.
Iliq havo harakatsiz, tun quchog'ida
Anqib yotar limu bilan dafna bo'ylari.
Oy porlaydi qoramtil tun ko'kida ravshan,
Sukunatdan darak berar posbonlar sasi.
Balki olis shtimol yoqda — Parijda bu on
Bulutlar-la qoplangandir moviy osmon.
Balki sovuq yomg'ir yog'ar, achchiq yel esar. —
Bizning qanday ishimiz bor? Quloq sol, Karlo
Sendan talab etaman men, menga kuhib hoq;
Qani, bir kul. Qani-qani!

Don Karlos

Ey aziz Iblis!

Eshik taqqillaydi.

Don Guan Hey, Laura!

Laura Kimdir kelgan? Kimning tovushi?

Don Guan Eshikni och...

Laura Nahotki u?.. Yo rabbim!

Eshik ochiladi. Don Guan kiradi.

Don Guan Salom!..

Laura Don Guan!..

Don Karlos Kim? Don Guanmi?

Lauru o'zini Don Guanning bag'riga otadi.

Don Guan!
Laura, jonim!..

Qizni o'padi.

Uyingdagi kim, Lauram?

Don Karlos Men, Don Karlosman.

Don Guan Kutilmagan bir uchrashuv! Men ertagayoq
Xizmatingga tayyordirman.

Don Karlos Yo'q, hozir — shu on.

Laura Don Karlos, bas! Siz ko'chada emassiz hozir,
Axir, mening uyimdasiz. Ketinggiz darhol...

Don Karlos *(quloq solmaydi)*
Axir, sening qiliching bor. Men kutayapman.

Don Guan Agar sabring chidamasa, mayli, men rozi.

Ular olishadilar.

Laura Hoy! Hoy! Guan!

*Laura o'zini yotoqqa tashlaydi.
Don Karlos yiqiladi.*

Don Guan Tur, Laura, ish tamom bo'ldi.

Laura Nima bo'ldi? U o'ldimi? O'z uyimda-ya!
Ana xolos! Endi nima qilaman, shayton?
Jasadini qayga tashlay?

Don Guan Balki u hali
O'lmagandir.

Laura (jasadni ko'zdan kechiradi)
O'lmaganmish! Hay, muttahaam, hay;
Yuragiga tig' sanchipsan — yanglishmapsan ham,
Uch qirrali jarohatdan hatto qon kelmas,
Nafasi ham o'chib qolgan — sen nima qilding?

Don Guan O'zi shuni istadi-ku. Men nima qildim?

Laura Eh, Don Guan chindan alani qiladi juda.
Sen hamisha qilg'ilikni qilasan, lekin
Hech gunohkor bo'lmaysan sen... Qayerdan kelding?
Qachon kelding?

Don Guan Hozirgina keldim yashirin,
Axir, halli gunohimni kechganlari yo'q.

Laura Shu ondayoq Laurangni esga oldingmi?
Yaxshi narsa, yaxshi bo'lur. Ha, endi yetar,
Senga ortiq ishonmayman. Sen tasodifan
Uyni ko'rib qolgandirsan, shu yerdan o'tib...

Don Guan Yo'q, Lauram, ishonmasang, so'ray olasan,
Leporellom aytib berar. Shahar chetida
Bir la'nati qabristonni qo'nalg'a etdim.
Men Madridga Laurani izlab kelganman.

Uni o'padi.

Laura Aziz do'stim!.. To'xta!.. O'lik huzurida-ya!..
Uni nima qilsak ekan?

Don Guan Ishing bo'lmasin?
Erta bilan, tong chog'ida ridoga o'rab,
Uni men bu yerdan olib chiqib ketaman,
Chorrahaga yetqizaman.

Laura Ehtiyot bo'lgil,
Seni yana biror kishi ko'rib qolmasin.
Sen bir lahza keyin kelib, yaxshi ish qilding!

O'rtoqlaring ziyofatda edi shu yerda.
Hozirgina tarqalishdi ular uyimdan.
Yaxshi bo'lmas edi agar ro'baro' kelsang!

Don Guan Ayt, Laura, qachon ko'ngil qo'ygansan bunga?

Laura Kimga? Esing joyidami?

Don Guan Iqror bo'l hozir,
Men bu yerdan ketganimdan beri necha bor
Bevafolik qilding menga?

Laura Sen-chi, tentagim?

Don Guan Oldin sen ayt... Mayli, keyin suhbatlashamiz!

III-SAHNA

Komandor haykali.

Don Guan Hamma narsa tobora soz; men tasodifan
Don Karlosni o'ldirgandan keyin, shu yerda
Darvesh bo'lib yashirindim — men endi har kun
Bu chorbog'da ko'rmakdaman go'zal bevamni,
U ham meni payqagandir, — Shu paytga qadar
Sipoh tutdik o'zimizni, — ammo men bugun
Uning bilan so'zlashaman; bas shuncha kutmoq.
Gapni qanday boshlay? Ha, «Men botinoldim...» Yo'q;
«Senyora...» deb boshlayman... E! Boshga ne kelsa,
Men o'shani aytaman-da, tayyorgarliksiz,
Ishq qo'shig'in to'quvchisi kabi bemalol...
Endi kela qolsa edi... Menimcha, usiz
Bu yerda ko'p zerikadi yolg'iz komandor.
Zab bahodirsifat turar bu yerda mag'rur!
Yelkalarni qarang! Qanday Gerkulesnamo!
Marhum pastbo'y odam edi, jajji va tajang;
Oyoq uchin bunda bosib cho'zsaydi qo'lin —
Haykalining burniga ham yetkazolmasdi.
Yeskuryalning yonida duch kelganimizda,

Qilichimni bir qadadim, mina sanchilgan
Chigirtkaday qotib qoldi — va lekin o'zi
Jasoratli, mag'rur edi, ruhi shiddatnok...
Ha! Ana u.

Dona Anna kitradi.

Dona Anna U yana shu yerdadir. Otam
Nogoh kelib, fikringizni bo'ldim shekilli.
Afv eting.

Don Guan Men, xonim, sizdan afv so'rayman.
Balki g'amu-g'ussangizni bermalol, erkin
Yozarkansiz, sizga xalal berayotirman.

Dona Anna Yo'q, otajon, qayg'ularim o'zimga ayon,
Oldingizda duolarim osmonga qadar
Hech monesiz yetib borar — sizdan so'rayman,
Ovozimga qo'shing aziz ovozingizni.

Don Guan Dona Anna, men siz bilan duo o'qlym!
Bu qadarli saodatga loyiq emasman.
Mening osiy lablarim-la sizning muqaddas
So'zlaringiz takrorlashga jur'at etmayman —
Boshingizni asta egib, tun kabi qora
Sochingizni oq marmarga sochar ekansiz,
Men olisdan ixlos bilan sizga boqaman.
Shunday go'zal bir farishta bu maqbaraga
Sirli uchib kelgan kabi tuyular menga,
Shunda qalbim bir iztiroh bilan o'rtanib,
Duo kelmas tilimga. Men hayron termulib,
Go'zal malak nafasila yongan, sevgining —
Ko'z yoshidan bahramand bu sovuq marmarning
Sohibini ko'p baxtiyor deya o'ylayman.

Dona Anna So'zlaringiz ko'p g'alati!

Don Guan Yo'g'-e, senyora?

- Dona Anna** Menga axir... Unutmangki...
- Don Guan** Sabab? Yoki men
Chindan darvesh emasmanmi? Gunohkor sadoq —
Bu dargohda shuncha baland yangramasinmi?
- Dona Anna** Shunday tuydim... Men hech narsa
tushunolmadim...
- Don Guan** Oh, angladim: siz harini bilib oldingiz!
- Dona Anna** Men nimani bildim?
- Don Guan** Ya'ni, men rohib emas —
Qoshingizda tiz cho'kaman, uzr so'rayman.
- Dona Anna** Yo rabbim! Yo'q turing, turing... Siz kimsiz axir?
- Don Guan** Men bir badbaxt, oqibatsiz sevgi qurboni.
- Dona Anna** Yo rabbim! Qabr tepasida hu qanday so'zlar!
Keting hozir!
- Don Guan** Dona Anna, birgina lahza,
Men bir lahza qolay faqat!
- Dona Anna** Birov kelsa-chi?
- Don Guan** Panjara berk. Bir lahzaga ijozat bering!
- Dona Anna** Qani, ayting! Sizga nima kerakdir?
- Don Guan** Aja...
Mayli hozir oyog'ingiz ostida o'lay,
Shu chorboqqa dafn etilsin bechora tanim;
Shu yaqinga, sizga aziz bo'lgan qabrning
Yaqiniga emas, balki nariroq yerga.
Darvozaning yaqiniga, xud ostonaga;
Zulfingizni quyi solib, yosh to'kmak uchun

Mag'rur haykal sari kelar ekansiz, toki
Libosingiz, oyog'ingiz yengil tegarkan,
Mozorimning toshimi siz aylang baxtiyor.

Dona Anna Es-hushingiz joyidamas.

Don Guan Yo, Dona Anna,
Telbali kring belgisimi ajal tilamoq?
Agar telba bo'lsam, tirik qolmoq istardim,
Qalbingizni toza sevgim otashi ila
Qo'zg'otishdan bo'laolar edim umidvor;
Agar telba bo'lsam edi, kechalarni men,
Qo'shliq aytib, uyqungizni qilib bezovta.
Balkoningiz qarshisida o'tkazar edim;
Agar telba bo'lsam, sukut saqlab hamisha
Azob chekib yurmas edim...

Dona Anna Sizning sukutda
Yurganingiz shumi hali?

Don Guan Ey, Dona Anna,
Bir tasodif yo'lim ochdi, yo'qsa, siz hech on
Mening g'amli sirlarimni bilmas edingiz.

Dona Anna Ko'pdan beri meni sevib qolgansizmi siz?

Don Guan Qachon sevib qolganimni o'zim bilmayman,
Ammo o'sha damdan beri shu bir lahzali
Hayot menga qimmatlidir, o'shandan beri
Men angladim tole degan so'zning qadrini.

Dona Anna Nari keting — siz qo'rqinchli odam ekansiz.

Don Guan Nima uchun?

Dona Anna Men qo'rqaman so'zlaringizdan.

Don Guan Men tinaman; faqat meni mangu quvlamang,
Sizni faqat ko'rish o'zi menga saodat.

Men beparda niyatlarni o'ylamayman ham,
Sizdan hech bir narsa talab qilmayman, agar
Menga yashash nasib ekan, sizni ko'rmagim
Kerak.

Dona Anna Keting, bu yer bunday so'zlar va bunday
Telbaliklar o'rni emas. Ertaga bizning
Uyga keling. Agar meni hurmat qilishga
Ont ichsangiz, sizni qabul qilaman, faqat
Oqshom chog'i, balki yana kechroq kelasiz.
Beva bo'lib qolganimdan beri hech kim-la
Ko'rishmadim...

Don Guan Dona Anna, go'zal farishta!
Siz bugun bir bechoraga taskin bergandek,
Tangri o'zi sizni qo'llab, bersin tasalli.

Dona Anna Endi keting.

Don Guan Yana qolay bir lahzagina.

Dona Anna Yo'q, men o'zim ketaqolay... Zotan tilimga
Oyatlar ham kelmay qoldi. Siz bu dunyoviy
Gaplar bilan band etdingiz; mening qulog'im
Bu so'zlarga ko'pdan beri begona edi.
Siz ertaga keling.

Don Guan Hamon ishonolmayman.
Hamon ko'zim yetmas baxt-u-saodatimga...
Nahot erta sizni ko'rsam! —
Ochiq-oydin!

Dona Anna Ha, ertaga, kuni ertaga.
Ismingiz na?

Don Guan Diyego de Kalvado ismim...

Dona Anna Xayr endi, Don Diyego.

Ketadi.

Don Guan

Ey Leporello!

Leporello keladi.

Leporello

Nima xizmat?

Don Guan

Aziz Leporello! Men juda
Baxtiyorman! Ertagayoq — oqshomda, kechroq...
Leporellom, ertagayoq — tayyorlikni ko'r...
Chaqaloqday baxtiyorman!

Leporello

Dona Anna-la
Siz so'zlasha oldingizmi? Balki u sizga
Ikki og'iz shiringina so'z so'ylagandir
Yoki uni duo qilgan bo'lsangiz kerak.

Don Guan

Leporello, yo'q, undaymas! U mening ila
Ko'rishmakni va'da qildi!

Leporello

Yo'g'-e, mumkinmas!
O, bevalar, baringiz ham shunday.

Don Guan

Men baxtli!
Men kuylashga, bor jahonni quchishga tayyor.

Leporello

Komandor-chi? Bunga nima deydi komandor?

Don Guan

U rashk ichra yonadi deb o'ylaysanmi sen?
Yo'q, hundaymas; u aqli-hushli bir odam,
Itoatkor bo'lib qolgan o'lgandan beri.

Leporello

Yo'q; komandor haykaliga bir nazar tashlang.

Don Guan

Nima bo'пти?

Leporello

U siz tomon tikilib, go'yo
Zarda qilgan kabi.

Don Guan Qani, bor, Leporello,
Unga aytgil, menikiga marhamat qilsin,
Yo'q, ertaga — Dona Anna uyiga borsin.

Leporello Haykal mehmon bo'ladimi? Necbun?

Don Guan Ayonki,
Dona Anna bilan suhbat qilgali emas;
Haykalga ayt, ertagayoq, kechroq kelsin-u,
Dona Anna eshigining ostonasida
Eshikbonlik qilib tursin.

Leporello Hazilni qo'ying.
U o'lik-ku!

Don Guan Bor dedim, bor.

Leporello Lekin.

Don Guan Tezroq bor.

Leporello Ey sharaflı, ey chiroyli, ajoyib haykal!
Afandim Don Guan sizdan o'tinib so'rar,
Tashrif qilib... Xudo ursin, gapirolmayman,
Qo'rqib ketdim.

Don Guan Qo'rqqoq! Shoshma!

Leporello Marhamat qiling.
Afandim Don Guan sizdan o'tinib so'rar.
Siz ertaga rafiqangiz uyiga kelib,
Darvozada soqchi bo'ling...

Haykal boshini qimirlatib, roziligini bildiradi.

Voy!

Don Guan Ne gap?

Zeriktirib qo'ymasa deb, bechora beva
Unutolmas hamon og'ir musibatini.
Ko'z yoshlarim jilva bilan qo'shilar ekan,
Aprel oyin eslatadi. Nechun jimsiz?

Don Guan

Men

Go'zal Dona Anna bilan xilvatda qolib,
Visol zavqi bilan mastman. Sizni bu zamon
Baxtli o'lik maqbarasi qarshisidamas,
Marmar yorning huzurida tiz cho'kkan holda —
Emas, balki o'z qoshimda ko'rib turibman.

Dona Anna

Don Diyego, shuncha rashkli ekansiz — erim
Sizni hatto qabrida ham qiynamoqda.

Don Guan

Men —

Sira ham rashk qilmasligim kerak. Sababi,
Siz o'zingiz uni tanlab er qilgansiz.

Dona Anna

Yo'q,

Don Alvarga onam erga bergan majburan,
Biz kambag'al, Don Alvar boy edi bag'oyat.

Don Guan

Baxtiyor er! U qup-quruq xazinalarni
Olihaning oyog'iga to'kib, shuningchun
Jannat zavq-u-safosini suripti! Agar
Avval bilgan bo'lsam edim sizni, men butun
Shavkatimni, boyligimni birgina quvnoq
Boqishingiz uchun butkul bag'ishlar edim;
Men muqaddas farmoningiz quli bo'lardim,
Barcha erka havasingiz yod qilib olib,
Hech o'rinsiz qoldirmasdim; butun umringiz
Sehr-u-e'goz bilan to'lar edi muttasil.
Evoh! Tangri menga boshqa qismat yozibdi.

Dona Anna

Diyego, bas; sizga quloq solsam, gunohim
Yana ortar — sizni sevmak men uchun mahol,
Qabrga ham beva sodiq bo'lmog'i kerak.
Don Alvarning meni qanday sevganligini

- Don Guan** Jur'at etmayman,
Agar aytsam darhol mendan nafratlanasiz.
- Dona Anna** Yo'q, yo'q. Sizni hozirdanoq afv etaman,
Ammo bilmak istayman men...
- Don Guan** Aslo istamang.
U dahshatli, ayanch asror — sir bo'lib qolsin.
- Dona Anna** Ayanch asror! Menga azob bermakdasiz siz.
Men qo'rqmayman, ayting hozir, qanday asror u?
Qanday qilib etoldingiz meni haqorat?
Avval sizni bilmas edim — dushmanlarim yo'q,
Ilgari ham bo'lmagan. Bir dushmanim faqat
O'z erimning qotilidir.
- Don Guan** (o'zicha)
Ish bo'lar tamom!
Menga ayting: baxti qora Don Guanni siz
Avval tanir edingizmi?
- Dona Anna** Yo'q, men hech qachon
Uni ko'rgan emasman.
- Don Guan** Siz yuragingizda
Unga yovlik saqlaysizmi?
- Dona Anna** Nomus tufayli,
Ammo meni, Don Diyego, sizdan so'ragan
Savolimdan chalg'itishga urinayapsiz,
Sizdan talab etaman men...
- Don Guan** U Don Guanni
Uchratsangiz nima qilar edingiz?
- Dona Anna** Xanjar —
Sanchar edim qora qalbiga.

Mayli — o'ldir, mayli — qoldir, faqat sen uchun
Men yashayman...

Dona Anna

Don Guanning o'zi shu, demak...

Don Guan

Dona Anna, rost emasmi, uni bir yovuz,
Va yirtqich deb ta'riflagan edilar sizga, --
Balki butkul nohaq emas bunday ovoza,
Mening horg'in vijdonimda hali ham balki
Yovuzlikning asari bor... Uzoq vaqt fahshning
Ko'p g'ayratli talahasi bo'lib yurgandim.
Ammo sizni ko'rganimdan beri go'yoki
Bu dunyoga yangi inson bo'lib tug'ildim.
Sizni sevib, yaxshilikni sevib qoldim men,
O'z umrimda birinchi bor uning oldida
Sehrlanib va qaltirab tiz cho'kmakdaman.

Dona Anna

O, Don Guan so'zga mohir — buni bilaman.
Eshitganman; hiyla bilan yo'ldan urarkan.
Sizni hamma xudosini sotgan fahsh deydi,
Siz iblisning xuddi o'zi. Qancha bechora
Xotinlarni huzgandirsiz?

Don Guan

Birortasini

Shu vaqtgacha sevmaganman.

Dona Anna

Men shu Don Guan

Birinchi bor sevadi-yu, menda yana bir
Yangi qurbon izlamaydi deb ishonaymi!

Dona Anna

Ha, senga nima bo'ldi? Oh!..

Komandorning haykali kiradi. Dona Anna yerga yiqiladi.

Haykal

Mana keldim.

Don Guan

Evoh tangrim! Dona Anna!

Uni tinch qoldir,
Don Guan, sen buncha titraysan?
Chaqirganman, ko'rdim, xursandman.

Mana qo'lim... Tosh panjalarning
quvidan omon yo'q, evoh!
qo'yib yubor mening qo'limni,
— bari tamom — oh, Dona Anna!

ig'darilib tushadi.

BOQCHASAROY FONTANI

*Barin chashma chun mo base dam zadand
Biraftand chun chashm barham zadand
Charo dil barin korvonguh nihem,
Ki yoron biraftand, mo dur rahem.*

Sa'diy.

Quvoq solib o'ltirar Garoy;
Lablarida kahrabo chilim;
Dahshatli xon atrofida jim
Sukut saqlab tek turar saroy.
Jim-jit edi butun koshona;
Hamma xonning g'amgin yuzidan
Qayg'u bilan g'azab izidan
Payqar edi mubham nishona.
Ammo mag'rur sohibi farmon
Besabr qo'lim bir siltab soldi:
Barcha asta tarqaldi har yon.

Ko'shklar aro bir o'zi qoldi;
Ko'ksi biroz erkin dam oldi,
Mavjli ko'rfaz oynasi ayon
Aks etganday sel bulutini,
Jiddiy manglay dil to'lqinini
Aylar edi jonliroq bayon.

U mag'rur dil ne g'am-la to'lmish?
Qanday fikr band etmish uni?
Rusga qarshi boshlarmi urush?
Qul qilishni o'ylar Polshani?
Uni qonli o'chmi yondirar,
Yoki qo'shin boshlamish isyon,
Qo'rqitarmi uni tog'lilar,
Yo Genuya makridan nolon?
Yo'q, shuhratdan charchamishdir xon,
Berahm qo'l ortiq tolmishdir;
O'ylaridan jang yo'qolmishdir.

Nahot, haram ichra xiyonat:
Asira qiz jinoyat qilmish?
Nahot, yelga uchib diyonat,
Nomahramga inoyat qilmish?

Yo'q Garoyning xotinlari hech
Orzu qilish, o'ynashni bilmay,
Mungli sukut ichra erta-kech
Chechaklanar erkinlik ko'rmay;
Hushyor va to'ng og'a dastida,
Xafalig-u g'amlar ostida
Xiyonatni bilmaydi ular.
Zindon husn-u-chiroyini to'sar;
Oyna uyda arabiy gullar
Xuddi shunday bo'g'ilib o'sar.
Mungga to'lib navbatma-navbat
Kunlar, oylar, yillar o'tadi.
Bildirmasdan, yoshlik, muhabbat —
Barchasini olib ketadi.
Kunlar birday kechar haramda,
Imillaydi soat oqini,
Hokim bo'lgan yalqovlik, g'amda
Jilva qilmas safo to'lqini.
Yosh juvonlar havasga to'lib,
Bir ish qilib ovunmoq bo'lib,
Kiyishadi ming turli libos,
Suhbat qizir kanizlarga xos.
Yoki o'ynoq suvlar sasida,
Toza, shaffof zamzamasida
To'p-to'p bo'lib sayr etishadi
Chinorlarning zich soyasida.
Ortlarida ularni poylab,
Yovuz og'a' yurar hoy-hoylab.
Undan qochish, berkinish hekor:
Hasadli ko'z, ding qulog'i bor,
U har ishdan doim xabardor.
U tufayli o'rnashmish mangu
Qattiq tartib ushbu saroyda;
Unga xonning erki har joyda -

Yagona bir qonundirki, u
Uni qur'on farzidek bilar,
Dilda saqlar va bajo qilar.
Uning ko'ngli sevgi istamas,
U insoniy hislardan mahrum,
U sezgiga berilmas bir zum;
Na ko'z yoshi, na yumshoq nafas,
Na ta'naga aylar e'tibor;
Asiralar chekkan ohu-zor
Unga asti qilmaydi ta'sir,
Pinagini buzmaydi taqir;
Yolborishga quloq solmaydi,
Haqoratni qilmaydi pisand,
Uni hech na yumshatolmaydi,
Tosh qalbila u mag'rur, xursand.
Unga xotin odati ayon,
U ko'p ko'rgan, har yerda, har on
Hurlikda ham, erksizlikda ham:
Nozli nigoh, ko'zlardagi nam
Ko'ngliga hech hokim bo'lolmas,
U, ularga ortiq ishonmas.

Soch yozishib, haram qizlari
Asiralar cho'milar ekan,
Sehr to'la go'zal yuzlari
Chashmalarda ko'milar ekan,
Qip-yalang'och qizlarga loqayd,
Bee'tibor termulib, shu payt
U poyloqchi hozirdir yana,
Tutqunlarga nozirdir yana.
U, haramda, tun zulmatida
Ehtiyotkor, asta kezadi.
Uyquning shu tinch soatida
Har eshikka quloq osadi,
Kim oromda, kim tushda ingrar,
Kim oh tortar — barchasin tinglar.
Uydan-uyga bildirmay ko'cbib
Keng tashlaydi u makkor domni;
Biror kaniz sandirab, cho'chib,

Tilga olsa begona nomni,
Yo mabodo do'stiga biroz
Taqdiridan koyib, etsa roz —
Dildagini aylasa izhor,
Balolarga bo'lar giriftor!

Garoy nega tinmay chekar g'am?
Chilim o'chib qolgan qo'lida;
Botinolmay dam olishga ham,
Ostonada, xonning yo'lida
Og'a imo kutadi bu dam.
O'yga botgan hukmdor turar;
Oldidagi eshik ochiq. U
Sukut saqlab, ohista kirar
Sevganlarin qabriga to'g'ru.

Xonni kutib, ko'rish ko'yida,
Sachrab turgan fontan bo'yida,
Ipak gilam uzra o'ynashib,
Bir to'da sho'x qizlar osuda
O'ltirishar edi yayrashib;
Bolalarday shodlanib, suvda —
Marmar tubda ko'ringan, liqqa
Gir-gir suzib yurgan baliqqa
Telmurishar edi dil toshib.
Gohlari suvga ataylab
Oltin sirg'a tashlaydi boylab.
Joriyalar atrofda xushbo'y
Sharbat tashib yurardi. Nogoh
Shirin qo'shiq, jaranglagan kuy
Bor haramni ayladi ogoh:

Tatar qo'shig'i

1

«Ko'z yoshi, g'amlarni boshdan ko'tarib,
Tangri o'zi berar oxiri ehson:
Baxtiyordir, yillar so'ngida qarib
Makkani ziyorat aylagan inson.

2

Baxtiyordir, Dunay sohillarini
 Qoni-la muborak etgan qahramon:
 Farishtalar yozib kokillarini,
 Unga jilva bilan bo'lar namoyon.

3

Va lekin, Zarema, kimki dunyoga,
 Uning rohatiga bermay e'tibor,
 Haramda sen bilan kirib safoga,
 Gulday erkalatsa, o'sha baxtiyor».

Ular kuylar. Ammo qani u,
 Muhabbatning yulduzi qani,
 Haram ko'rki — kunduzi qani,
 Qayda qoldi Zarema bonu?
 Hayhot, uning gul yuzi so'lmish,
 Qalbi og'ir qayg'uga to'lmish,
 Maqtovlarga solmaydi quloq,
 Ko'zlarida yosh buloq-buloq.
 Yashin urgan xurmodek, qaddi
 Bukilmishdir, yo'q endi haddi,
 Hechna unga yoqmasdan qoldi,
 Chunki Garoy boqmasdan qoldi.

Vafsizlik qildi u!.. Ammo,
 Ey gurji qiz, sen-la chiroyda
 Kim tenglashar? Hattoki oy-da
 Da'vo qilsa, bo'lur muammo.
 Peshonangga sochingni, dilbar,
 Ikki o'rab, qilibsana chambar.
 Maftun etar ko'zlaring shandir,
 Tundan qora, kundan ravshandir.
 Otash dilni kimlarning sasi
 Sendan kuchli bayonlay hilar?
 Kimning o'tli, shirin bo'sasi
 Senikidan jonlilik qilar?
 Senga chindan ko'ngil bergan er

Qanday qilib o'zga yorni der?
Lekin zolim, loqayd Garoyxon
Haramiga Polsha qizini
Asir etib olgandan buyon,
Sendan nari tutib o'zini,
Chiroyingga boqmay qo'ydi-yu,
G'amga to'lib, tunlar beuyqu
Tanholikni ayladi odat,
Qo'llaringdan ketdi saodat.

Yosh Mariya yaqindagina
O'zga diyor ko'kini ko'rdi;
Gulday husni bilan qizgina
O'z yurtida yashab yurardi.
Faxrlanar edi u bilan
Qarib qolgan otasi har on.
Quvonchim, deb maqtanuv bilan
Erkalatar edi bearmon.
Uning bola erki chol uchun
Qonun edi, tinglardi butun.
Mavjud edi cholda bir tilak:
Istardiki, bahor kunidak
Ochiq bo'lsin qizining baxti,
Xushnud o'tsin umrbod vaqti,
Zarracha ham qayg'u hech qachon
Yuragiga solmasin tug'yon.
Hatto erga chiqqanida ham
Xotirlasin tush kabi har dam
Betashvish-u, beozor, beg'am
Yashnab yurgan qizlik chog'ini,
Osmonday keng erk quchog'ini.
Yumshoq xulqi, sevimli nozi,
Tabiati, laziz ovozi,
To'nib turgan moviy ko'zlari,
Dona-dona sbirin so'zlari
Bir-biridan ko'p jozibador,
Hammasida sehrli kuch bor.
Ochiq qo'lli, saxiy tabiat
Ayamagan edi borini:

San'at bilan berib latofat,
Bezar edi gul diydorini.
Sehr to'la arfa' bilan qiz
Uy bazmini jonlantirardi.
Amaldorlar, boylar izma-iz
Xotinlikka so'rab yurardi.
Shu qiz — yigit-yalang uyida,
Oh deb yurar ular ko'yida.
Muhabbatni Mariya lokin
Bilmas edi, yuragi sokin.
Otasining qasrida ozod
O'rtoqlari bilan o'ynab shod,
Uchar qushday hur va xursand-di.

U ko'pdanmi bu yerda bandi?
Tatarlarning lashkari bir dam
Daryo kabi, Polshani bosdi:
Xirmonlarga tushgan yong'in ham
Bu qadar tez yoyilolmasdi.
Xarob bo'lib qonli urushda,
Yetim qoldi gullab yotgan yurt,
Bu berahm, yovuz yurushda.
Azob chekdi g'amga botgan yurt.
Tugab ketdi shod, quvnoq chog'lar,
To'nib qoldi qishloqlar, bog'lar
Hokim bo'ldi saroyda sukut...
Mariyaning uyi jim-jit, bo'sh...
Uy ma'badi ichra bir to'da
Mumiyolangan o'liklar xomush
Qator yotar sovuq uyquda,
Knyazlikka maxsus nishon-la.
Oltin toj-u, haybatli shon-la
O'shalarning safida yana
Paydo bo'ldi yangi sag'ana...
Ota go'rda, asoratda qiz,
Koshonada baxil bir voris
Amri farmon berib yuradi,
Xarob bo'lgan o'lkada bu on
Uning og'ir zulmi dastida,

Yovuz tavqi-la'nat ostida
Badnom bo'lar butun sharaf-shon.

Hayhot! Saqlar qo'ynida qulday
Boqchasaroy yosh knyaz qizin,
Erksizlikda yosh to'kar, gulday
Sarg'aytirib Mariya yuzin.
Shafqat qilar u baxtsizga xon;
Qiz chekkan g'am, nola-yu fig'on
Uyqusini bezovta qilib,
Garoyga hech bermaydi omon.
Bechoraga xon rahmi kelib
Qat'iy haram qonunlarini
Yumshatadi unga ataylab,
Tund poyloqchi na tun, na kuni
Qiz oldiga kirmaydi poylab,
Uning g'amxo'r, parvoli dasti
Yotar choqda, joyiga uni
Olib chiqib, yotqizmas asti,
Mariyaga nigoh tikmakka.

Botinolmas uning kir ko'zi;
Joriyasi bilan qiz yakka
Xilvat uyda cho'milar o'zi.
Asiraning g'amgin oromin
Buzib qo'ymay, bo'lmay deb zomin
Xon o'zi ham qo'r qar ichida;
Haramning bir yiroq burchida
Unga yashash ijozat etgan.
Go'yo unda samoviy bir jon
Yashiringan, uzlatga ketgan.
U yerda hech tinmasdan bir on
Aziz qizning oldida tun-kun
Chirog' yonib turardi butun.
U yerda qiz ko'nglin yupatib
Mas'ud kechgan o'tgan zamon-la
O'z yurtini dilga eslatib
Umid yashar yuvvosh imon-la.
U yerda yosh to'kar tinmay qiz

Kundoshlardan narida, yolg'iz.
Lekin atrof g'arq bo'lmish tamom
Tentaklarcha bir ishrat ichra;
Mo'jiza-la ajralgan hujra
Yosh sanamni saqlaydi omon.
Ozg'in hislar qurboni ko'ngil
Buzuq kayflar orasida ham,
Bir garovki, saqlaydi har dam
Bir ilobiy hisni muttasil.

Tun qoraydi, bosdi qorong'u
Tavridaning gul bog'larini;
Chamanlarni mast qildi uyqu,
Gullar egdi yaproqlarini;
Uzoqlardan bulbul zorini
Eshitaman, oy diydorini
Ko'rsatadi yulduz ketidan,
Ko'm-ko'k, toza osmon betidan
Nur to'kadi gulzor bog'larga,
Quyug o'rmon, baland tog'larga
Boqchasaroy ko'chalarida
Kechki mahal, oq ro'mol o'rab,
Oppoq, oydin kechalarida
Bir-biridan hol-abvol so'rab,
Gaplashishib o'ltirish uchun
Oddiy tatar xotinlari tek
Lipillashib yengil soyadek
Uydan-uyga kezishar butun.
Saroy tingan; uxlagan haram
Farog'atga cho'mib parvosiz;
Tun tinchligin biron narsa ham
Buzolmaydi; sodiq muhofiz
O'zi kezib chiqib bor-yo'qni,
Yotmish; ammo tinch qo'ymas tashvish
Hatto unda uxlagan ruhni.
Xiyonatni kutib xavflanish
Orom bermas sira ham bunga:
Goh kimningdir shivirlagani,
Goh birovning pichirlagani,

Goh qichqiriq eshitilar unga.
Behudaga aldanib, birdan
Sapchib turar, qaltiroq bosar;
Atrofiga tinch quloq solar...
Har yoq sokin, sas yo'q bir yerdan;
Faqat shirin kuylab tomchilar
Marmar hovuz ichra o'ynashar,
Faqat bulbul — bedor kuychilar
Sevimli gul uzra kuylashar.
Bular uni uzoq band etar,
Yana takror uyquga ketar...

Qanday xushdir bilguchilarga
Sharq kechasin qora chiroyi!
Payg'ambarini sevguchilarga
Qanday shirin hoqadi oyi!
Ularning uy-o'chog'larida
Maftun etar gulbog'larida
Oy ostida sirlarga to'lgan
Tinchlik bilan oshno bo'lgan,
Orom bilan dardu-farog'at
Toshib yotgan haramlarida,
Kechalarning tinch damlarida
Qanday ko'rk bor, qandayin rohat!

Xonning hamma xotinlari tinch
Uxlar edi, bittasi notimch,
Uxlayolmay, o'rnidan turib,
Eshigini ochdi-yu, asta
Bitta-bitta ohista yurib
Tashqariga chiqdi bir pasda...
Qushday mudrab, ko'zi ilinib
Qari og'a oldida yotar.
Agar bu ish unga bilinib
Qolsa, umri qayg'uga botar...
Oh, u cholning qattiqdir qalbi,
Yalinganga bermas e'tibor:
Uyqusi ham aldamchi, ayyor!

Yonboshidan sekin, ruh kabi
Sezdirmasdan o'tib ketdi u.

.....

Bir eshikka borib yetdi-yu,
Qo'li titrab, ochdi qulfini...
Ich karimga kirdi va uni
Sirli vahm bosdi shu zamon,
Ajablanib boqdi har tomon...
Shamdon yonar, to'kar so'nik nur,
Yaltiraydi burchakda bir but,
Qiz yotadi, yuzida sukut,
Ko'ksida xoch porlab ko'rinur.
Ey gurji qiz! Bular hammasi
Eslatdilar senga moziyni,
Go'yo, o'tgan kunlarning sasi
Aytgan kabi bo'ldi rozini.
Ko'z oldida tinch rahat bilan
Uxlab yotar u knyaz qizi,
Qizlikka xos harorat bilan
Otash kabi qizarib yuzi,
Ko'rinadi ko'z yoshi izi,
Zaif jilva betida yonar;
Yong'ir yuvib o'chib ketgan rang
Oyning xira nurida arang
Xuddi shunga o'xshab tovlanar.
Go'yo malak moviy osmondan
Uchib tushib, uxlab yotganday,
Asiraga achinib jondan,
Uyqusida yig'lab yotganday.
O, Zarema, ne bo'ldi senga?
Chidolmadi, qalbi siqildi,
Beixtiyor yerga yiqildi.
Va yalinib: «Achingil menga,
Rad etmagil arzimni!» dedi.
Uning so'zi, u chekkan fig'on,
Uxloq qizni cho'chitib, shu on
Uyqusidan uyg'otgan edi.
Knyaz qizi turib, oldida

Bir begona xotinni ko'rdi.
Qo'rqib unga qarab qoldi-da,
Hayajon-la qaltirab so'rdi:
«Kimsen? Tunda, tanho nechun sen
Bu yerdasan?» — «Senga keldim men,
Omon bergil, taqdirim uchun
Menga faqat qoldi bir chora...
Rahm aylasang, yo'qolsa zora
Umrim ufqin qoplagan tutun.
Baxt qo'ynida ko'p huzur qildim,
Na qayg'uni, na g'amni bildim...
O'tdi orom bergan u soya,
Tingla, halok bo'lmayin zoya.

Men bu yerda tug'ilganim yo'q,
Mening yurtim yiroqdir, yiroq.
O'tgan kunlar, u dardli firoq
Yodimdadir hali ham to'liq.
Yodimdadir gullagan bog'lar,
Osmon bilan o'pishgan tog'lar,
Tog'dan oqqan irmoqlar, soylar,
O'tib bo'lmas qalin to'qaylar,
Yodimdadir u olis kunlar,
O'zga odat, o'zga qonunlar.
Ammo qanday taqdir-la, nechun
O'z yurtimdan ayrilganimni,
Bu yoqlarga qayrilganimni
Bilmayman men; faqat qora tun,
Yelkan uzra turgan odam-u
Hamda dengiz esimda, xolos...
Qo'rquvdan pok, tinchlikda xandon,
Haram ichra gullab yurardim.
Itoatli ko'ngil-la har on
Ishq darsini kutib turardim.
Mening sirli orzulartm tez
Ushaldilar; qonli urushdan
Charchab, dabshat solgan yurishdan
Qaytib keldi haramga xunrez.
Ta'zim qilib, xonning oldiga

Biz hammamiz chiqdik. U menga
Diqqat bilan, indamay, so'zsiz
Ochiq, nurli nazarin soldi,
So'ngra meni chaqirib oldi...
Shundan beri biz kami-ko'stsiz;
Ajr alishmay, rohatda masrur
Nafas oldik haxt bilan har dam,
Biror marta na fitna, na g'am,
Na tuhmat-u, na shubha, qusur,
Na azobli rashkning sitami,
Na xafalik va na alami
Bizga panja sololgani yo'q,
Baxtimizni ololgani yo'q.
Martya, sen duch kelding unga,
Bir ko'rishda xush kelding unga...
Shundan beri ko'ngli toraydi,
Jinoyatli o'y-la qaraydi!
Xiyonat-la yetkazib ozor,
Eshitmaydi hech itobimni,
So'ramaydi asti tobimni,
U noladan, fig'ondan bezor;
U, eskiday menga tolpinmas,
Menda endi avvalgi nafis
Na shirin so'z unga va na his
Go'yo bitgan, go'yo topilmas.
Jinoyatga bedaxlsan sen,
Men bilaman, ayb senda emas...
Demak, tingla: chiroyliman men,
Menga hech kim tenglasha olmas.
Birgina sen haramda butun
Raqib bo'la olarding menga;
Ammo, aytib qo'yay men senga,
Tug'ilganman ehtiros uchun.
Sen men kabi sevaol maysan;
Sovuq ko'rking bilan sen nechun
U bir ojiz dilni qiynaysan?
Qo'y Garoym; u mening yorim,
Bo'sasi-la yonar ruxsorim;
Menga qat'iy qasamyod elgan;

Ko'pdan beri butun armonin,
O'y va xohish, ahd-u paymonin
Men-la butkul ittihad etgan;
Xiyonati meni o'ldirar,
Xazon etar, gulday so'ldirar...
Men yig'layman; ko'rgil, tizimni —
Bukdim sening qarshingda, mana,
Sarg'aytirma mening yuzimni,
Yalinaman qaytarib yana,
Sevinchimni, oromimni ber,
Ul hurungi Garoyimni ber...
Menga zarra etma e'tiroz,
U meniki, senga asirdir,
Yo'llaringda ko'zi basirdir.
Xoh tahqir et, xohi qilib roz,
Ne istasang, aylagil shuni,
Ammo bezdir o'zingdan uni,
Ond ich... (Garchi, men qur'onni deb,
Muhabbatni hamda xonni deb
O'z dinimni sotgan bo'lsam ham,
Ammo mening onamning dini
Sening dining edi.) Kel, meni
Xalos ayla, yod etgil qasam,
O'sha din-la ond ich, Garoyini
Zaremaga qaytarmoq uchun...
Bilgil, agar yo'q desang menga,
Ko'rsaturman xanjarning kuchin...
Ona yurtim yaqin Kavkazga».

Shu so'zlarni aytdi-yu, birdan
G'oyib bo'ldi darbol u yerdan.
Ta'qib etmoq uchun izma-iz
Botinolmay, dov qilmay dili,
Orqasidan chiqolmadi qiz.
U azobli ehtiros tili
Ma'sumaga aslo oshnoinas;
Ammo uning ovozi, u sas
Sal anig-u, ajoyib edi,
Qo'rquv to'la g'aroyib edi.

Qanday yoshlar, qandayin faryod
Bu xo'rligidan aylaydi ozod?
Ne kutadi uni? Nahot, u
Qolgan achchiq yosh kunlarin shu —
Asoratda o'tkazadi zor?
Ey xudoyim, ey parvardigor!
Agar Garoy baxtsizni mangu
Shu maxbasda unutsa edi,
Yo g'amlardan xalos aylab, u
O'limga tez yuz tutsa edi,
Qanday shodlik bilan g'am to'lgan
Bu jahonni tark etardi qiz!
Ko'pdan o'tgan hayotning laziz
Lahzalari, ko'zdan yo'q bo'lgan!
Ne bor endi unga dunyoda?
Vaqti yetdi, kutarlar uni:
Katta ochib orom qo'ynini
Chaqirarlar uni samoda...

.....
Kunlar o'tdi, ketdi Mariya,
Tarki umr etdi Mariya.
Ko'pdan orzu etgan olamni
Yangi malak kabi yoritdi.
Ammo uni, go'zal sanamni
Nelar mozor qo'yniga eltdi?
Asoratmi, hasratmi, g'anami,
Erksizlikda tortgan sitamimi,
Kasallikmi, yo boshqa bir shar?
Kim biladi? Undan yo'q xabar...
Latofatli Mariya o'lmish,
U yosh g'uncha ochilmay so'lmish!
Bo'shab qoldi tumraygan saroy,
Tashlab ketdi yurtini Garoy!
Yana o'zga qirg'oqlar tomon
Urush bilan ketdi yovuz xon;
Tag'in to'fon bo'ronlar ora
G'amgin uchar qon qusib xunrez,
Ammo uning yuragi qora,
Olovlanar unda boshqa his.

U ko'p choqlar to'qinishlarda
Qilichini tikka ushlar-da,
Yana birdan qotib qoladi,
Jinnilarcha nazar soladi,
Atrofiga bo'zarib, go'yo
Vahimaga to'lganday dili,
Allanelar g'uldirab tili,
Yosh to'kadi bamisli daryo.
Unutilgan, razil u haram
Xon yuzini ko'rmaydi bu dam;
Unda, azob qo'ynida mahkum,
Haqir og'a qo'lida mazlum
Qarimoqda xotinlar g'amda.
Ko'pdan ular ichra haramda
Gurji xotin ko'rinmas; uni
Muhofizlar daryoga otgan,
Bechora, suv tubiga botgan...
Knyaz qizi jon bergan tuni
Bajarilib bu qonli qazo,
Ko'zin yumgan Zarema... Evoh,
Qanday og'ir bo'lmasin gunoh,
Ko'p dahshatli bo'lgan bu jazo!

Kavkaz qo'shni tuproqlarini,
Rusning tip-tinch qishloqlarini
Urush bilan qilib ko'p vayron,
Tavridaga qaytib keldi xon.
Saroyning chet burchini saylab,
Mariyaga esdalik aylab
Marmarlardan yasatdi fontan;
Tepasida Muhammad mohi
Bir but bilan taqdim etilmish.
(Ramz, albatta, bo'lmag'ur bir ish,
Nodonlikning ayanch gunohi.)
Yozuvlar bor; kechib ko'p yillar,
Hali o'chib ketmagan ular.
Hali marmar hovuzdan suvlar
Qirg'oqlarga toshib guvillar.
Tinim bilmay, to'xtamay biron

Dona-dona yosh to'kar fontan,
O'g'li jangda jon bergan ona
Xuddi shunday yig'laydi yona...
O'tinishning bu rivoyatini
U yoqlarda qizlar bilishgan,
So'ngra g'amgin haykal otini
«Yosh fontani» bo'lsin deyishgan.
Men Shimolni tashlab nihoyat,
Bazmlarni ko'pdan unutib,
Boqchasaroy tomon yo'l tutib,
Mudroq ko'shkni qildim ziyorat;
Xalq ofati, janggari tatar
Ishrat qilib, bazmlar qurgan,
Urushlardan so'ngra bexatar,
Bekami-ko'st farog'at surgan
Tinch saroyini men tanho kezdim;
Tinch uylarda, bog'larda sezdim;
Hamon rohat yashar tuni-kun,
Suvlar qaynar, gul chechak otar,
Tok zanglari tovlanib yotar,
Devorlarda yarqirar oltin.
Men u yerda, — tinmay oh urib,
Hasrat yutib, tasbeh o'girib,
Bahorida yashnamay so'lgan
Xotinlarning makoni bo'lgan
Panjarali darchalar ko'rdim.
Kungirali parchalar ko'rdim
Ko'rdim xonlar qabristonini,
Xo'jalarning so'ng makonini.
Go'rlardagi marmar ustunlar
Go'yo taqdir haqida sekin
Hazin-hazin taratib unlar
So'zlaganday tuyuldi... Lekin
Xonlar qami? Qani u haram?
Butun atrof qayg'uli va jim,
O'zgarmishdir... Ammoki u dam
Bu bilan band emasdi dilim.
Atirgullar mayin nafasi,
Fontanlarning kuylagan sasi

Jazb ayladi, qildi faromush;
Ixtiyorsiz; menda aql-hush
Nomuayyan to'lnga tushdi,
Shunda saroy ichida bir qiz
Soya kabi sirli va izziz
Ko'z oldimda lipillab uchdi!..

Do'stlar, kimning soyasin ko'rdim?
Aytimg menga, men sizdan so'rdim:
U ko'rinmas, sevimli, yumshoq
Kimning shakli, meni o'sha choq
Ta'qib etgan edi? Kim edi?
Chor atrofim sokim, jim edi...
Mariyaning toza jonimi,
Yo, Zarema rashk bilan to'lib,
Bo'sh haramda bir soya bo'lib
Ko'z oldimdan o'tgan onimi?

Yodimdadir shunday bir chiroy,
Xuddi shunday sevimli nigoh...
Dil o'shanga uchar butunlay,
Quvg'inda ham g'ussasi, evoh.
Ey, aqlsiz, bo'ldi! Endi, bas!
G'ussa chekma, foyida bermas.
Baxtsiz ishqning notinch, noiloj
Isyoniga bermishsan xiroj —
Hushingni yig', to'siqlarni buz,
Tokaygacha sen ojiz mahbus
Kishanlarni o'pib yotasan?
Tokaygacha yengil tor bilan,
Bu olamda oh-u-zor bilan,
Jununingni oshkor etasan?

Men muzaning muxlisi, yori,
Farog'atming murid, xushtori,
Tezdan, butun shubrat o'ylari
Ham sevgini butkul unutib,
Yana sizga tomon yo'l tutib,
Ko'raman, sbo'x Salg'ir bo'ylari!

Xotiralar asiri bo'lib,
Men boraman o'sha yoqlarga,
Dengiz bo'yi baland tog'larga.
Tavridaning suvlari to'lib,
Xursand etar xoris ko'zimni,
Hur sezaman yana o'zimni.
Sehrli yurt! Ko'zim quvonchi!
Yuragimning erka yupanchi!
U yerlarda har na jonlidir;
O'rmon, vodiy, yashnab yotgan qir,
Uzumlarki, yoqut, kahrabo,
Teraklar-u, suvlar dilrabo,
Taralganda, esganda sabo,
Ayiq tog'ning aylanasida
Zangori ko'k yarqirar ekan,
Tiniq, ko'm-ko'k suvning pastida
Qizg'ish nurlar barq urar ekan;
Tog'lar oshib, qirg'oq yo'llardan
Uchar ekan yo'lchining toyi,
Uning ko'zin o'ng-u-so'llardan
Jazb etadi bu yer chiroyi!..